



MINTAQAVIY IQTISODIYOT KONTEKSTIDA PARRANDACHILIK SANOATINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI: QASHQADARYO VILOYATI MISOLI.

Qarshiyev Obidjon Egamberdiyevich

<https://orcid.org/0009-0004-3916-208X>

Annotasiya. Maqolada mintaqaviy iqtisodiyot kontekstida parrandachilik sanoatining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Tadqiqot Qashqadaryo viloyati misolida sanoatning boshlang'ich shakllanishi, rivojlantirish va modernizatsiya bosqichlarini o'rganadi. Shuningdek, rivojlanishga ta'sir etuvchi asosiy omillar – resurslar bilan ta'minlanganlik, investitsion faollik, texnologik daraja va davlat qo'llab-quvvatlash mexanizmlari – statistik usullar yordamida baholangan. Tadqiqot natijalari parrandachilik sanoatini samarali rivojlantirishda resurslar va investitsiyalar muhimligini ko'rsatadi hamda tarmoq samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: mintaqaviy iqtisodiyot, parrandachilik sanoati, rivojlanish bosqichlari, ishlab chiqarish samaradorligi, investitsion faollik, institutsional omillar.

Kirish. Mintaqa iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlashda agrar-sanoat majmuasi yetakchi tarmoqlardan biri hisoblanadi. Ushbu majmua tarkibida parrandachilik sanoati o'zining yuqori iqtisodiy samaradorligi, qisqa ishlab chiqarish sikliga egaligi hamda aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashdagi muhim roli bilan alohida ajralib turadi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, parrandachilik sanoati rivojlangan hududlarda mintaqaviy iqtisodiy o'sishning drayveri sifatida shakllanmoqda.

Parrandachilik sanoatining mintaqa iqtisodiyotidagi ahamiyati, avvalo, aholining to'yimli va nisbatan arzon oqsil manbalari bo'lgan parranda go'shti va tuxum mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish bilan belgilanadi. Parranda



mahsulotlari boshqa chorvachilik tarmoqlariga nisbatan tez yetishtirilishi, yem-xashak konversiyasi samaradorligining yuqoriligi va ishlab chiqarish tannarxining pastligi bilan ajralib turadi. Bu esa parrandachilik sanoatini mintaqa darajasida rivojlantirishni iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq qiladi. Mintaqaviy iqtisodiyot nuqtayi nazaridan parrandachilik sanoati hududlarda bandlikni ta'minlash va aholi daromadlarini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, qishloq hududlarida parrandachilik xo'jaliklarining rivojlanishi yangi ish o'rinlari yaratish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash orqali ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, parrandachilik korxonalari bilan bog'liq bo'lgan yem ishlab chiqarish, veterinariya xizmati, logistika va qayta ishlash tarmoqlarining rivojlanishi mintaqada multiplikativ iqtisodiy samarani yuzaga keltiradi. Parrandachilik sanoatining mintaqa iqtisodiyotidagi o'rni uning investitsion jozibadorligi bilan ham belgilanadi. Mazkur tarmoqda investitsiya aylanish tezligi yuqori bo'lib, qisqa muddatda moliyaviy natijalarga erishish imkoniyati mavjud. Bu holat mintaqalarga ichki va tashqi investitsiyalarni jalb qilishda parrandachilik sanoatini ustuvor yo'nalish sifatida belgilashga asos bo'ladi. Natijada, ishlab chiqarish quvvatlari kengayib, hududlarning iqtisodiy salohiyati oshadi.

**1-bosqich. An'anaviy
(ekstensiv) rivojlanish bosqichi
(1990-yillargacha)**

• Dastlab kichik quvvatli davlat xo'jaliklari asosida rivojlangan. Past texnologik ta'minot; qo'l mehnati ustunligi mahsuldorlikning pastligi, bozor infratuzilmasining yetishmasligi bu davrda parrandachilik sanoati mintaqa iqtisodiyotida ikkilamchi rol o'ynagan

**2-bosqich. Bozor
munosabatlariga moslashuv
bosqichi (1991–2016-yillar)**

• Mazkur bosqich O'zbekiston iqtisodiyotida bozor mexanizmlarining shakllanishi bilan bog'liq. Tuxum va parranda go'shti ishlab chiqarish hajmi sekin, ammo barqaror o'sdi, tarmoqning hududiy notekis rivojlanishi kuzatildi, investitsiya faolligi past bo'ldi

**3-bosqich. Intensivlashuv va
institutSIONAL qo'llab-quvvatlash
bosqichi (2017–2021-yillar)**

• Ushbu bosqich mamlakatda agrar sohani modernizatsiya qilishga qaratilgan davlat siyosati bilan xarakterlanadi. tuxum va parranda go'shti ishlab chiqarish hajmi sekin, ammo barqaror o'sdi, tarmoqning hududiy notekis rivojlanishi kuzatildi, investitsiya faolligi past bo'ldi

**4-bosqich. Innovatsion va
klasterlashuvga asoslangan
rivojlanish bosqichi (2022-yildan
hozirgi davrgacha)**

• Hozirgi bosqich parrandachilik sanoatini mintaqaviy iqtisodiyotning drayver tarmog'iga aylantirishga qaratilgan. Qashqadaryo viloyatida ushbu bosqich hududlararo iqtisodiy konvergensiyaning ta'minlashda muhim rol o'ynamoqda.



1-rasm. Parrandachilik sanoatining shakllanish va rivojlanish bosqichlari

Mintaqa iqtisodiyotida parrandachilik sanoatining ahamiyati oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bilan chambarchas bog'liq. Aholi sonining o'sib borishi va iste'mol tuzilmasining o'zgarishi sharoitida parranda mahsulotlariga bo'lgan talab barqaror oshib bormoqda. Shu nuqtayi nazardan, parrandachilik sanoatini hududlar kesimida rivojlantirish, ishlab chiqarish hajmini oshirish va mahsulot assortimentini kengaytirish mintaqaviy oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashning muhim sharti hisoblanadi. Qashqadaryo viloyati misolida oladigan bo'lsak, hududning tabiiy-iqlim sharoiti, yem-xashak bazasining mavjudligi va mehnat resurslarining yetarliligi parrandachilik sanoatini rivojlantirish uchun qulay imkoniyatlar yaratadi. Biroq tumanlar kesimida parrandachilik ishlab chiqarish hajmi va samaradorligi o'rtasida sezilarli tafovutlar mavjud. Ushbu tafovutlar mintaqa iqtisodiyotining muvozanatli rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi hamda tarmoqni tumanlararo konvergensiyalash asosida rivojlantirish zaruratini yuzaga keltiradi. Shuningdek, parrandachilik sanoati mintaqada sanoat va qishloq xo'jaligi integratsiyasini kuchaytiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Parranda mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarining rivojlanishi qo'shimcha qiymat zanjirini kengaytirib, mintaqaviy yalpi hududiy mahsulot hajmining oshishiga xizmat qiladi. Bu esa hududlarning iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Parrandachilik sanoatining mintaqaviy iqtisodiyotdagi o'rnini Parrandachilik sanoati Qashqadaryo viloyati iqtisodiyotida:

aholining oqsilli oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish;
qishloq joylarda bandlikni ta'minlash;

kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish;

agrosanoat integratsiyasini kuchaytirish;

hududlararo iqtisodiy tafovutlarni qisqartirish kabi vazifalarni bajaradi.

Mazkur tarmoqning rivojlanishi donchilik, yem-xashak sanoati, logistika va qayta ishlash tarmoqlari bilan kooperatsion aloqalarning kuchayishiga xizmat qiladi.



Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Qashqadaryo viloyati O'zbekiston Respublikasining janubiy qismida joylashgan bo'lib, respublikaning agrar-iqtisodiy mintaqalaridan biri hisoblanadi. Viloyat hududi qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan bo'lib, donchilik, chorvachilik va parrandachilik tarmoqlari mintaqa iqtisodiyotida muhim o'rin egallaydi. Viloyatning iqlim sharoiti, yer resurslari va aholi sonining yuqoriligi parrandachilik sanoatini rivojlantirish uchun qulay omillar hisoblanadi. Parrandachilik mahsulotlariga ichki talabning mavjudligi ushbu tarmoqning iqtisodiy ahamiyatini oshirib kelmoqda.

Xulosa qilib aytganda, parrandachilik sanoati mintaqa iqtisodiyotida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, bandlikni oshirish, investitsiya faolligini kuchaytirish va hududlararo iqtisodiy tafovutlarni kamaytirishda muhim strategik tarmoq hisoblanadi. Shu sababli parrandachilik sanoatini mintaqaviy rivojlanishning ustuvor yo'nalishi sifatida belgilash va uni tumanlararo konvergensiyalash asosida rivojlantirish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

FAYDALANILGAN ADABIYOT VA MANBALAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 20 dekabrda «Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va aholining daromad manbaini kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-55-son // <https://lex.uz>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 30 dekabrda PQ-77-son «Hunarmandchilik faoliyatini qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi Qarori. // <https://lex.uz/docs/5807559>
3. Basco, R. Family business and regional development - A theoretical model of regional familiness. Journal of Family Business Strategy (2015), <http://dx.doi.org/10.1016/j.jfbs.2015.04>
4. Banalieva E.R., Eddleston K.A., Zellweger T.M. When do family firms have an advantage in transitioning economies? Toward a dynamic institution-based view // Strategic Management Journal. – 2015. –T. 36. -№ 9.
5. O'lmasov A. Oila iqtisodiyoti. Toshkent – «Mexnat»- 1998.;
6. Pardaev M.Q. Oila xo'jaligi iqtisodiyoti va tadbirkorligi. Samarqand 2001 y.;



7. **Norqobilova. F. A.** International scientific and practical conference // Iqtisodiy erkinlik indekisi hunarmandchilik sohasini rivojlantirishdagi roli (zenodo.org), 2023. – p 255-257
8. Arens R. Complex processes for envelopes of normal noise // IRE Trans. Inform. Theory, Sept. 1957, vol. IT-3, pp. 204-207.
9. Mukhitdinov Khudoyar Suyunovich¹, Norqobilova Feruza Abdihamidovna².
// Prospects Of Digitalization Of Craftsmanship Development In The Region / Journal of Pharmaceutical Negative Results: Volume 13: Special Issue 9: 2022.